

EKOLOGIYANI VA TABIATNI MUHOFAZA QILAYLIK

Baxtiyorova Nurxon

JDPI O'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi.

Bilingki daryoning ko'zlari yoshlansa ,

Uning boshiga g'am, kulfat tushgan bo'ladi.

(Xorazmiy)

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ta'kidlashicha "Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib , sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammolarni hal etishga bog'liqdir. Tabiatni muhofaza qilish ekologiya muammolarini oldini olish , ekologik talablarga doimo rioya qilish mustaqillik davrining ijtimoiy iqtisodiy, huquqiy masalasi bo'lib qolmay , balki ekologik siyosatning asosiga aylanishi lozim. Chunki ushbu muammolar mustaqil davlatimiz ravnaqi bilan bevosita bog'langan. Hozirgi kunda orol muammosi Markaziy Osiyo hududi doirasidan chiqib ketdi va jahonshumul ahamiyat kasb etdi. Uning salbiy oqibatlarini bugungi kun iqlim sharoiti , biologik muvozanatni o'zgartirishda , aholi salomatligi va bo'lg'usi avlod genafondiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Orol dengizining falokati Yevropa uchun , sayyoramizning boshqa hududlari uchun qanday hatarli va kutilmagan vaziyatlarni yuzaga keltirishi mumkinligiga kimningdir ishontirishi yoki buni isbotlab berish mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan boshlab Rio de Janero shahrida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyada qabul qilingan ekologik siyosanti , ya'ni atrof muhit holatni yaxshilash , aholi salomatligini mustahkamlashga qaratilgan ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirib kalmogda.

Hozirgi kunga kelib , butun dunyoda ekologik holat ko'pchilikni birdek bezovta qilmoqda .Ekologik holat ko'z ongimizda dahshatli tus olmoqda .Atrof –muhitni muhofaza qilish va mavjud tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalasi dolzarbligicha qolmoqda .Hozirgi ekologik inqirozning sababchisi va o'z aql-zakovati bilan shu inqirozdan holi etuvchi ham inson ekanligi ma'lum bo'lib qoldi.Atrof-muhitni ifloslanishidan saqlash ,tabiiy boyliklardan tejab –tergab foydalanish ko'p jihatdan insonlar qaysi jamiyatda yashashlaridan qat'iy nazarva ekologik madaniyatga bog'liq.Mustaqil respublikamizda ekologik muammolarni hal qilish uchun aholining ekologik savodxonligini oshirish eng ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Ayniqsa ,ta'lim tizimining barcha bosqichlarida "Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish asoslari" fanini o'qitish muhim ahamiyatga ega.

Tabiatning inson va jamiyat uchun ahamiyati juda katta va turli-tumandir.uni inson ehtiyojlarini qondiish jihatlariga qarab iqtisodiy, ilmiy, sog'lomlashtirish, tarbiyaviy va estetik kabi ahamiyatlarini farqlash mumkin.

Ekologiya atamasining dastlabki ta'rifi taniqli nemis biolog Ernest Gekkel tomonidam uning "organizmlarning umumiy morfologiyasi " (1866)va "Olam vujudga kelishining tabiiy tarix" (1868) kabi ilmiy asarlarida keltirilgan. Unga ko'ra ekologiya lug'ay jihatdan yunoncha ;oykos9oikos) yashash makoni , o'rni , joyi hamda logos – fan , mantiq so'zlari birikmasidan tuzilgan atamadir. Ma'nosiga ko'ra tirik organizmning yashash sharoiti yoki tashqi muhit bilan o'zaro munosabatini anglatadi.

Ekologiya biologik yo'nalishdagi fanlardan biri sifatida XIX asrning o'rtalarida shakllandi. Dastlabki davrlarda u alohida olingan tirik organizmlarni o'rab turuvchi o'lik tabiat bilan munosabatini o'rgangan.

Ekologiya mustaqil fan sifatida XIX asrning o'xirlarida keng tan olingan bo'lsa-da, uning ekologiya deb atalib, umumiy lug'atga kirishi XX asrning so'nggi (1960-2000) o'n yilliklariga to'g'ri keladi.

Bugungi kunga kelib, ekologiya sof biologik fanlar tizimidan chiqib, mazmuni kengayib bormoqda. Atrof-muhitga zamonaviy fan va texnika taraqqiyotining ta'siri natijasida ekologiya tushunchasi o'ta kengayib ketdi. Fanga "inson ekologiyasi" degan atama ham kirib keldi. Insonning tashqi muhitga munosabati boshqa tirik organizmlardan tubdan farq qiladi.

Hozirgi zamon ekologiyasi siyosiy, huquqiy organlar, iqtisodiy, psixologiya, pedagogika va ma'naviyat bilan canbarchas aloqada bo'lib, insonning tashqi muhit bilan o'zaro aloqasida bu boadagi muammolarni mustaqil o'rganib boradi. Uning vazifasi jamiyatda rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy yo'malishlari o'sib borishi hamda fan va texnika yutuqlarining ayrim ko'rsatkichkari natijasida inson va tashqi muhit o'rtasidagi salbiy oqibatlarni munimumga keltirish borasida ish olib borish hisoblanadi. Ekologiya atamasi bugunasta sekin har bir inson ongiga yetib bormoqda, o'zi yashab turgan muhit haqida o'ylashga majbur qilmoqda.

Bugun insoniyat uchun bundan zarur yoki ekologiyani, ekologik va tushunchani kundalik hayot tarziga singdirishdan ko'ra muhimroq ish yo'qdir. Ekologik ongni ekologik ta'lim –tarbiya, ma'lumot, insonning ekologik ta'lim orqali qayta qurilishi, uning hayot tarzini va ma'naviyatini o'zgartirish zarur. Hozircha insonlar ongida ekologik qonunlarga bo'ysunmaslik, tabiatga shunchaki nazar bilan qarash tasavvurlariga singib ketgan. Insonning tabiatga bo'lgan loqayd munosabati natijasida globallashtirish va iqlim o'zgarishlari cho'llanish Orol dengizining qurib qolishi kabi muammolar tuzatib bo'lmaydigan ekologik inqirozlarni keltirib chiqardi.

Hozirgi kunda atmosfera tarkibida turli gazlar aralashmasi ko'payib ketdi, bu narsa albatta, inson salomatligiga zarar yetkazadi. Havoda gazlardan is gazi

ko'paysa , uni inson mutlaqo sezmaydi, bu gaz o'ta zararli bo'lib , insonni o'limga olinb kelishi mumkin.Uning hidi bo'lmaydi,shuning uchun ham inson is gazi borligini sezmay qoladi.

Sanoat rivojlangan katta shaharlarda havo nihoyatda og'ir ekanligini shaharga kirib kelgan gazdan sezish mumkin .NAVOIY,ANGREN,OLMALIQ shaharlaridagi atmosfera havosida 10 dan ziyod inson sog'ligi uchun zararli gazlar bor.Bugungi kunda ushbu masalaga davlat darajasida e'tibor qaratish,Prezident farmonlari va qarorlarida o'z aksini topmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak,tabiatni asrash har bir yosh avlodning muqaddas burchidir. Insonlarni lol qoldiradigan,uni qalbini tub-tubidan o'rin egallagan go'zallik ham tabiat mo'jizasidir. Odamlarni chinakkamiga hayratga soladigan va tuyg'ularini jo'shqinlantiradigan mana shu tuyg'ularni kuchaytiradigan ham tabiatdir. Insonoyat tabiat oldida ojizligini barcha anglab yetgan bo'lsa kerak.Garchi vaqt kutib turmasa-da hammasini to'g'irlash uchun insoniyat ixtiyorida yetarlicha vaqt bor xdeb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Ekalogiya va tabiatni muhofaza qilish" Y.O Yormatova,X.S Xushvaqtova Toshkent 2018
2. "Ekalogiya va tabiatni muhofaza qilish" O'.E Xo'janazarov, SH.T Yakubjonova Toshkent 2018
3. "Ekalogiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari"P.Sultonov Toshkent 2007
4. "Umumiy ekalogiya" S.Mustofoyev, SO'roqov,P Suvonov Toshkent 2006.